“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini ta’minlashda yashil zonalar va ochiq suv havzalarining ahamiyati

Bobir Turdiyev,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
katta prokurori
e-mail: bobir.turdiev.uz@gmail.com

Аннотация. Maqolada insonning asosiy huquqi - qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqni ta’minlashda yashilzonalarvaochiqsuvhavzalarining ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda shahar yashil zonalari va ochiq suv havzalarining jismoniy va ruhiy salomatlikni yaxshilash, havo ifloslanishini kamaytirish, shahar issiqlik oroliga qarshi kurashish, shuningdek dam olish va ijtimoiy integratsiya uchun sharoit yaratishdagi roliga e’tibor qaratilgan. Jadal urbanizatsiya sharoitida ushbu maydonlarni saqlab qolish muammolari, iqtisodiy omillar va qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlar muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada yashil zonalar va suv havzalari uchun minimal standartlarni belgilash, ekologik boshqaruvni takomillashtirish, jamoatchilikning shaharsozlikdagi ishtirokini kengaytirish va barqaror shaharlarni yaratishga qaratilgan tavsiyalar taklif etilgan.

Калит сўзлар. yashil zonalar, suv havzalari, ekologik huquqlar, aholi salomatligi, barqaror rivojlanish, shaharsozlik, ekologik adolat

Аннотация. Статья рассматривает значение зеленых и водных пространств для обеспечения права на благоприятную окружающую среду — основного права человека, способствующего созданию благоприятных условий для жизни. В работе акцентируется внимание на роли городских зеленых зон и открытых водоемов в улучшении физического и психического здоровья, снижении загрязнения воздуха, борьбе с городскими тепловыми островами, а также в создании условий для отдыха и социальной интеграции. Обсуждаются проблемы сохранения этих пространств в условиях стремительной урбанизации, экономических факторов и недостатков в правовой базе. В статье представлены рекомендациипо установлениюминимальных стандартов для зеленых и водных пространств, улучшениюэкологического управления,расширениюучастия общественности в городском планировании и созданиюустойчивых городов.

Ключевые слова. зеленые зоны, водные пространства, экологические права, общественное здоровье, устойчивое развитие, городское планирование, экологическая справедливость

Annotation. This article examines the importance of green and blue spaces in securing the right to a healthy environment, a fundamental human right that promotes favorable living conditions. The article highlights the role of urban green spaces and open water bodies in enhancing physical and mental health, reducing air pollution, combating urban heat islands, and providing recreation and social cohesion. The article discusses the difficulties in preserving these spaces amidst rapid urbanization, economic pressures, and insufficient legal frameworks. The paper concludes with policy recommendations, such as setting minimum standards for green and blue spaces, enhancing environmental governance, promoting community participation in urban planning, and integrating green infrastructure into development strategies to build sustainable and resilient cities.

Keywords. green spaces, blue spaces, environmental rights, public health, sustainable development, urban planning, environmental justice

Ilmiy adabiyotlar, inson huquqlariga oid hujjatlarda qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquq moddiy va protseduraviy huquqlarga ajratilgan. Axborotga ega bo‘lish, atrof-muhit boshqaruvida (qarorlar qabul qilishda) ishtirok etish va odil sudlovni ta’minlash mazkur huquqning protseduraviy jihatlari hisoblanadi. Toza havo, xavfsiz va yetarli suv hamda sanitariya, sog‘lom va barqaror oziq-ovqat, yashash, ishlash va dam olish uchun zararli ta’sirdan xoli muhit, sog‘lom ekotizim va bioxilmaxillik mazkur huquqning moddiy tarkibini tashkil etadi [1]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining Salomatlik va atrof-muhitga oid tavsiyalar to‘plamida qulay atrof-muhit huquqining moddiy elementlari qatoriga yashil zonalar va suv havzalari ham kiritilgan [2].

Yashil zonalar va suv havzalari aholining madaniy hordiq olishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘kalamzor hududlar – shahar o‘rmonlari, o‘rmon-bog‘lar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, bog‘lar, sayilgohlar hamda va suv havzalari – hovuzlar, plyajlar, sohilbo‘yi obyektlari va boshqa rekreatsiya obyektlarini o‘z ichiga oladi. Ayrim tadqiqotchilar jamoat yashil maydonlariga park va qo‘riqxonalar, sport maydonlari, daryo va soy qirg‘oqbo‘yi hududlari, yashil maydonlar va so‘qmoqlar, jamoat bog‘lari, ko‘cha daraxtlari va tabiatni muhofaza qilish hududlari, shuningdek yashil devorlar, xiyobonlar va qabristonlarni ham kiritishadi [3].

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti shahar hududidagi yashil maydonlar inson jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash, yurak-qontomir, qandli diabet, homila nobud bo‘lishi va o‘limlar sonini qisqartirishi, jismoniy faollikni oshirish va semizlikni kamaytirish, shovqinni pasaytirish, havoni tozalash, shahar hududidagi issiq havo effektini kamaytirishi ta’kidlangan [4]. Tadqiqotlar shahardagi issiqlikni o‘ziga tortuvchi sathlar hisobiga shaharning havo harorati 5°C darajagacha ko‘tarilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, shaharda daraxtlar maydonini 10 foizga oshirish, isitish yoki sovitish uchun energiya sarfini 5-10% ga kamaytirish, yashil xiyobonlar havo ifloslanishining 85% ni filtrlash imkonini

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

beradi. Shuningdek, yashil maydonlar havo sifatini yaxshilash, shahar “issiqlik oroli” ta’sirini yumshatishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan sovutish effektlarini taqdim etib, yashil maydonlarning stressni kamaytirish, ruhiy salomatlikni yaxshilash va jismoniy faollikni oshirish kabi sog‘liq uchun foydali jihatlari mavjud [5].

Bundan tashqari, yashil maydonlar turli xil ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik manfaatlar keltirib, bu o‘z navbatida insonlarning jismoniy, psixologik, hissiy, ijtimoiy va moddiy farovonligini yaxshilaydi, hayot sifatini oshiradi. Shu sababli, fuqarolarning umumiy hayot sifatini oshirish uchun yashil maydonlarni muhofaza qilish, ularni sog‘liqni saqlash, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga integratsiya qilish tavsiya etiladi [6].

Tadqiqotlar shahar atrofidagi daraxt va yashil maydonlar muhofazasi energiyaga bo‘lgan talabga bog‘liqligi, energiya (elektr energiya, tabiiy gaz, ko‘mir) iste’moli bilan yog‘ochdan yoqilg‘i sifatida foydalanish o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Bunda energiya resurslari bilan bog‘liq muammo va tanqislik shahar atrofidagi daraxtlar va o‘rmonlarning kesilishi va hududi qisqarishiga olib kelishi, bu esa kelajak avlodlar manfaati va atrof-muhit uchun salbiy ta’sir qiladi. Shu sababli, ko‘plab davlatlarda ruxsatnomasiz daraxtlarni kesish taqiqlangan. Germaniya, Xitoy va Janubiy Afrika kabi ko‘plab mamlakatlarda qurigan daraxt yog‘ochlarini yig‘ishga ruxsat berilgan bo‘lsa, Filippinda har qanday o‘rmon yerlaridan ruxsatsiz o‘tin yig‘ish taqiqlangan [7].

Ayni paytda, shaharlar ichida yashil maydonlar har doim ham tekis taqsimlanmagan. Shuning uchun, shahar bo‘ylab yashil maydonlar mutanosib taqsimlanishi ekologik adolat masalasi sifatida qaraladi. Jumladan, AQShning ko‘plab shaharlarida kambag‘al mahallalarda yashil maydonlarni kengaytirish strategiyalari amalga oshirilmoqda. Strategiya foydalanilmayotgan shahar yerlarini ko‘kalamzorlashtirish va eskirgan yoki to‘liq foydalanilmayotgan transport infratuzilmasidan qayta foydalanishni o‘z ichiga oladi [3].

Shu kabi, boshqa tadqiqotchilar shaharlarni notekis ko‘kalamzorlashtirish natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy tengsizlikka e’tibor qaratgan holda, yashil maydonlarning mavjudligi, qulayligi va jozibadorligini tahlil qiladilar. Bunda ba’zi shaharlarda yashil zonalar rivojlanish bosimi ostida yo‘qolib ketish holatlari “qurilish terrorizmi” sifatida atalgan [8]. Shuningdek, yashil zonalarga kirishda jismoniy (yopiq mahallalar va xususiylashtirilgan maydonlar) va ijtimoiy to‘siqlar mavjudligi, yashil maydonlar ko‘pincha barcha foydalanuvchilar guruhlarining ehtiyojlarini qondira olmasligi, o‘rta va yuqori aholi qatlamlariga e’tibor qaratishi, aholining zaif qatlamlari ehtiyojlari uchun qulay emasligi ta’kidlangan [8].

Iqtisodiy omillar, renovatsiya loyihalari yoki turizm-rekreatsiya maqsadlarini mahalliy aholining ehtiyojlaridan ustun qo‘yish, xususiylashtirishda biznes manfaatlarining jamoat manfaatlaridan

ustuvorligi, yashil maydonlarni rejalashtirishda jamoatchilik ishtirokiga yetarli e’tibor qaratmaslik natijasida qarorlar ko‘pincha mahalliy hokimiyat organlari tomonidan yuqoridan pastga qarab qabul qilinishi va ozchilik guruhlarining yetarlicha ishtirokisiz amalga oshirilishi kabi protseduraviy muammolar yashil maydonlarning jozibadorligi salbiy ta’sir qilishi qayd etilgan [8].

Ayni paytda, ko‘pgina shaharlar zichlashishi jamoat joylari va yashil maydonlar yerlarini egallab olish xavfini keltirib chiqaradi [9]. Yashil maydonlarning yo‘qolishiga urbanizatsiyadan tashqari rivojlanish va qurilish ustidan nazorat sustligi, yashil maydonlarga egalik huquqi, tegishli idoralar o‘rtasida muvofiqlashtirishning yo‘qligi, saqlash va obodonlashtirish bilan bog‘liq muammolar, keng jamoatchilikning beparvoligi, yashil zonalarga past ustuvorlik berish kabi muammolar e’tirof etilgan. Shu sababli, shaharning yashil maydonlarini barqaror saqlash uchun yuqoridagi jihatlarni davlat siyosati yoki shaharni rivojlantirish rejalarida inobatga olish zarurligi olg‘a surilgan [10].

Yana bir tadqiqotda Xitoyning yashil makon siyosatida uy-joy ta’minoti va yashil makon o‘rtasidagi bog‘liqlik tobora ko‘proq e’tirof etilayotganligi, biroq yashil maydonlarning turli hududlar bo‘ylab taqsimlanishidagi nomutanosiblik va ba’zi shahar yashil maydonlarining sifati yetarli emasligi, ya’ni miqdoriy jihatlarga ko‘proq e’tibor qaratilib, maydonlarning sifati yoki funksionalligiga kamroq e’tibor qaratilayotganligi, shahar yashil maydonlarini loyihalash, saqlash va boshqarish bo‘yicha standartlashtirilgan ko‘rsatmalar yo‘qligi kabi muammolarga e’tibor qaratilgan [11].

Yashil infratuzilmaga oid muammolar qatoriga vazirliklar va tegishli davlat idoralari o‘rtasida muvofiqlashtirish va izchillikning yo‘qligi, moliyaviy va inson resurslarining yetarli emasligi, qarorlarni ishlab chiqishda shaffoflikning yo‘qligi, xususiy sektorning past ishtiroki, texnik salohiyatni kuchaytirish zarurati va shaharlarning yashil infratuzilma strategiyalarining quyi darajada ekanligi aniqlangan. Tadqiqotda yashil shahar infratuzilmasini rivojlantirishni uchun manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirish va hamkorlikni yaxshilash, texnik salohiyatni mustahkamlash, jamoatchilik ishtirokini oshirish, shaffoflikni oshirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan [12].

Turli ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o‘rtasida yashil zonalar ta’minotida sezilarli tafovut va ijtimoiy tengsizlik yashil maydonlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan kam ta’minlangan va ozchilik jamoalarning sog‘liqni saqlash sohasidagi tafovutlarni kuchaytiradi. Shaharlarning kengayishi, jamoat joylarining xususiylashtirilishi va yashil hududlardan ko‘ra tijorat va turar-joy maqsadlarida foydalanishga ustuvorlik berish sharoitida bu holat yanada kuchayadi [5]. Mualliflarning fikricha, shaharsozlik rivojlanishining asosiy tarkibiy qismi sifatida yashil zonalarni rejalashtirish kerak. Bu shaharlarni zonalashtirishda yashil maydonlar minimal hajmini belgilash, jamoat parklarini o‘z ichiga olgan qurilishlarni moliyaviy rag‘batlantirish, mavjud yashil

maydonlarni himoya qilish va kengaytirish choralarini o‘z ichiga olishi zarur. Maqolada yashil maydonlarni shaharsozlikka muvaffaqiyatli integratsiya qilish, jumladan yashil belbog‘lardan foydalanish, ko‘p maqsadli parklarni rivojlantirish va shahar hududlarini tabiiy landshaftlar bilan bog‘laydigan yashil yo‘laklarni yaratish kabi takliflar ilgari surilgan [5].

Boshqa bir tadqiqotda yashil bog‘ va xiyobonlarni saqlash va ushlab turish uchun jamoatchilik ishonchi doktrinasidan foydalanishni ilgari suradi. Unga ko‘ra xalq tomonidan berilgan mandat doirasida bog‘larni asrab-avvaylash, himoya qilish va saqlash davlat va mahalliy hokimiyat organlarining majburiyati hisoblanadi. Bu doktrina xalq tomonidan hokimiyat organlariga ishonib topshirilgan bog‘larni xususiylashtirish, uchinchi shaxslarga berish, hatto boshqa jamoat maqsadlarida foydalanishni cheklaydi. Davlat idoralari yuqoridagi o‘zlariga ishonib topshirilgan mol-mulkka nisbatan o‘z majburiyatlarini yetarlicha bajarmaganda fuqarolar sud tartibida chora ko‘rish, bu orqali yashil maydonlardan foydalanish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda shahardagi jamoat parklarini saqlash uchun zarur bo‘lgan choralarni korishi mumkinligi ta’kidlangan [13].

Yashil zonalarga oid standartlar

Yashil jamoat joylarini kengaytirish shaharlarni yanada barqaror, yashash uchun qulay joylarga aylantirishi e’tirof etilgan [14]. Shahar hududidagi yashil maydonlarning yuqoridagi xususiyatlarini inobatga olib, tadqiqotchilar, xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan shahar ekotizimi barqarorligini ta’minlashga oid minimal standartlar belgilangan. Jumladan, bir guruh tadqiqotchilar minimal standart sifatida o‘lchami kamida bir gektar bo‘lgan shahar yashil maydonlari chegarasigacha bo‘lgan maksimal chiziqli masofa 300 metr bo‘lishini tavsiya etgan [15].

Shu kabi, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan har bir shahar unda yashovchi har bir insonni kamida 9 kvadrat metr (kv.m.) yashil maydon bilan ta’minlashi tavsiya etilgan [16]. Shuningdek, qoida tariqasida shahar aholisi o‘z uylaridan 300 metr chiziqli masofada (taxminan 5 daqiqa piyoda yo‘l) kamida 0,5-1 gektar maydondagi jamoat yashil maydonlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak [17].

Ayrim davlatlarda ushbu ko‘rsatkichlardan ham yuqori standartlar belgilangan. Jumladan, yashil maydon kishi boshiga Los-Anjelesda 48,5 kv.m., Kembrijda 46 kv.m., Vashingtonda 38 kv.m., Malayziyada 20 kv.m. etib belgilangan. Indoneziya qonunchiligi shahar hududining 30% ni yashil hududlarga ajratishni talab qilsa, Malayziyada yangi hududlarni rivojlantirish loyihalarida 10% maydonni yashil hududga ajratishni nazarda tutadi [18].

Singapur hududi jihatdan dunyodagi eng kichik davlatlardan biri bo‘lishiga qaramay, maydonining 46,5% da yashil maydonlar tashkil etilgan va shahar 300 km. dan ortiq yashil koridorlar bilan ulangan [19]. Yana bir ixcham va 2016-yilda Yevropa yashil poytaxti

bilan taqdirlangan shaharlardan Lyublyanada (Sloveniya) har bir yashovchiga deyarli 542 m2 yashil maydon tog‘ri keladi. Shahar hududining 46% o‘rmon va qariyb 75% yashil maydondan iborat hamda uning deyarli barcha turar-joy zonalari jamoat yashil maydonidan 300 metrlik radiusda joylashgan [20]. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida o‘rtacha yashil maydonlar kishi boshiga 18,2 kvadrat metrni tashkil etadi va aholining 44% yashil maydonlardan 300 metr (piyoda 5 daqiqa) uzoqlikda yashaydi [21].

Shu kabi, Buyuk Britaniya standartlarida nafaqat yashil maydon hududi, balki yashil zonalarning shahar hududi bo‘ylab mutanosib taqsimlanishiga qaratilgan standartlar ham mavjud. Unga ko‘ra, yashil maydonchagacha bo‘lgan masofa uydan 300 metrdan oshmasligi, ikki kilometr masofada 20 gektar, 5 kilometr masofada 100 gektar va 10 kilometr masofada 500 gektar maydonga ega yashil maydonlar bo‘lishi belgilangan [22].

Qozog‘istonda atrof-muhit holatining sifat ko‘rsatkichlari har bir ma’muriy hudud (viloyat), respublika ahamiyatiga molik shahar va poytaxt miqyosida belgilanib, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan holda tegishli ma’muriy-hududiy birliklarning mahalliy vakillik organlari tomonidan besh yillik davr uchun tasdiqlanadi. Maqsadli sifat ko'rsatkichlarida havo, suv, tuproqdan tashqari o'rmonlar va yashil maydonlarning umumiy maydoni, yerlarning degradatsiyasi va cho'llanish darajasi, ifloslantiruvchi moddalar umumiy hajmi, issiqxona gazlari emissiyasiga oid ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi [23]. Jumladan, Ostona shahrida yashil qoplamalar maydonini 2023-2027-yillarda 21% dan 25% gacha yetkazish nazarda tutilgan [24].

Milliy qonunchilik va amaliyot

Mamlakatimizda oxirgi yillarda shahar hududidagi qurilish ishlari, bo‘sh maydon va yashil zonalarga reklama bannerlarini joylashtirish, turar-joy massivlarida avtomobil to‘xtash joylari tashkil etish uchun yashil maydonlarni betonlashtirish, umumiy ovqatlanish korxonalarining o‘ziga tutash maydondagi yashil zonalarni “egallab olishi”, yo‘l va ko‘priklar bunyod etish yoki ularni kengaytirish natijasida yashil qoplamali maydonlar va daraxtzorlar qisqarib bormoqda.

Tadqiqot doirasida insonning qulay (toza va sog‘lom) atrof-muhitga bo‘lgan huquqini amalga oshirish va ta’minlash masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomada qatnashganlarning 83.1% havo ifloslanishi, 69% yashil zonalar qisqarishi, daraxtlarning kesilishi, 66.5% iqlim o‘zgarishi, 64.4% suvsizlik va 53.4% suv ifloslanishi bilan bog‘liq muammolardan xavotirda ekanligini bildirgan.

Nazorat savolida ishtirokchilar qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini amalga oshirishda eng zarur elementlar sifatida toza havo (89.9%), yashil zona va xiyobonlar (84.9%), jismoniy faollik uchun yetarli infrastruktura (48.7%) sanab o‘tilgan. Yuqoridagi so‘rovnoma natijalari mamlakatimizda o‘tkazilgan boshqa tadqiqotlar natijalari

bilan muvofiq keladi. Xususan, U-Report (UNICEF) tomonidan 2024-yilda o‘tkazilgan so‘rovnomada ko‘pchilik (64%) atrof-muhit holatidan xavotirda ekanligini bildirib, asosiy muammo sifatida havoning ifloslanishi (56%) va yashil maydonlarning yetishmasligini (22%) qayd etgan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-son Farmonida ham sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish, aholi uchun qulay bo‘lgan ko‘chalarda piyoda va velosipedda yurish uchun «Salomatlik yo‘laklari»ni tashkil etish nazarda tutilgan. Avtomobil yo‘li yoqasida tashkil etiladigan yo‘laklar transport vositalaridan atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar va boshqa omillar hisobidan unchalik jozibador bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli, bunday yo‘laklarni yashil xiyobonlarda tashkil etish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, yashil zonalarning asosiy manbai bo‘lgan daraxtlar va butalarni kesilishiga e’lon qilingan moratoriy davrida 44 mingga yaqin, shundan 9,5 mingga yaqin qimmatbaho daraxtlar noqonuniy kesilishi natijasida tabiatga 36 milliard so‘mlik zarar yetkazilgan [25]. Boshqa manbalarga ko‘ra moratoriy davrida birgina Toshkent shahrida 49 mingga yaqin daraxt noqonuniy kesilgan [26]. Bu esa moratoriy rejimi ustidan nazorat sustligi, ko‘rilayotgan huquqiy choralar va iqtisodiy sanksiyalarning ko‘zlangan maqsadlarga erishilmayotganligi va samarasizligi, yuridik shaxslar javobgarligi va qat’iy jazo choralari yo‘qligi bilan bog‘liq muammolarni ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli Farmonining 15-bandiga muvofiq yangi quriladigan, balandligi yer yuzasidan 12 metrdan baland va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan bino va inshootlarga tutash hududlardagi yerlarning kamida 25% ko‘kalamzorlashtirish maydonlariga ajratish va ularda ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Biroq, mazkur tartibotga qurilish ishlarida qanchalik rioya etilayotganligiga oid ma’lumot mavjud emas.

Tadqiqotlarga ko‘ra, Toshkent shahrida yashil zonalar maydoni oxirgi 30 yilda 4 baravarga qisqarib, 1990-yilgi 38.46% dan 2019-yilda 6.32% gacha qisqargan [27]. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-dekabrdagi 880-son qarori bilan tasdiqlangan Toshkent shahri bosh rejasining asosiy ko‘rsatkichlariga ko‘ra Toshkent shahrida yashil maydonlar hududi aholisi jonboshiga 3 kvadrat metrni tashkil etib, 2045-yilgacha bo‘lgan davriy muddatda uni 8 kvadrat metrga yetkazilishi rejalashtirilgan. Bunda yashil hududlar 7 120,9 gektarni tashkil etib, shundan 893 gektar yashil maydonlar umumiy foydalanish, 5 102 gektar cheklangan yashil maydonlar hamda 1 125 gektar maxsus yashil maydonlardan iborat. Bosh reja doirasida 10 000 gektar qo‘shimcha yashil maydonlar tashkil etish va shahar atrofi bo‘ylab 15 000 gektar maydonda yashil belbog‘ barpo etish nazarda tutilgan.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Biroq, milliy qonunchiligimizda, shu jumladan, yangi tahrirdagi Shaharsozlik kodeksida yashil maydonlarga oid normalar yoki minimal standartlar belgilanmagan. Kodeksning 59-moddasiga muvofiq mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari mahalliy sharoitlarga muvofiq hududlarni ko‘kalamzorlashtirishga doir va boshqa qo‘shimcha talablarni kiritishga haqli ekanligi belgilangan. Bu esa mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bu borada muayyan me’yorlarni mustaqil belgilashi mumkinligini anglatadi. Shunday bo‘lsa-da, yashil hududlarga nisbatan minimal me’yorlar va strategiyalarni umumrespublika darajasida belgilashni bugun zamonning o‘zi taqozo etmoqda.

Yana bir dolzarb masala shahardagi asosiy yashillik manbasi bo‘lgan **istirohat bog‘lari** va xiyobonlar bilan bog‘liq. Qonunchilikda aholi punktlarining rekreatsion maqsaddagi dam olish, turizm, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun mo‘ljallangan hududlari yashil zonalar hisoblanadi. Qonunchilikda istirohat bog‘i hududida bir vaqtning o‘zida tashrif buradiganlarning hisoblab chiqilgan soni gektariga 100 kishidan oshmasligi zarurligi belgilangan. Bu istirohat bog‘lari hududi katta emasligini inobatga olib, bir vaqtning o‘zida shahar aholisining kamrog‘ini qabul qilishini anglatadi. Toshkentdagi bog‘lar maydoni 700 gektar atrofidani tashkil etishi va Toshkent shahri aholisi 3 112.8 mln. kishini tashkil etishini inobatga olsa, bir vaqtning o‘zida bog‘lar 70 000 kishi, ya’ni shahar aholisining 2.25% qabul qilish imkoniga egaligini ko‘rsatadi.

Afsuski, bog‘larning davlat va xususiy sherikchilik loyihalari uchun berilishi, bog‘lardagi tijoriy ob’yektlarning ko‘payishi, bog‘ hududining katta qismini attraksionlar egallashi, shovqin, umumiy ovqatlanish korxonalaridan chiqayotgan tutun, ayrim bog‘larga erkin (bepul) kirish imkonining cheklanganligi, fuqarolarning bog‘ va xiyobonlardan estetik zavq olishi va dam olish imkonini bermaydi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-apreldagi “Umummilliy birdamlik bog‘larini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 235-son qaroriga ko‘ra istirohat bog‘larining hududlari faol dam olish zonalari va tinch zonalarga ajratilib, bog‘larning 60% hududida yashil maydon sifatida daraxt va butalar ekish, piknik zonalar, hamda tashrif buyuruvchilar tinchligini buzmaydigan boshqa elementlar orqali sokin hududlar tashkil etish, istirohat bog‘larining 40% hududida faol hududlar sifatida attraksionlar va ko‘ngilochar o‘yin qurilmalarini joylashtirish belgilangan. Istirohat bog‘larida ekologik va rekreatsion funksiyalarni bajarishga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan xo‘jalik faoliyati taqiqlanishi ko‘rsatilgan.

Hujjatda istirohat bog‘lari hududlari qisqarishi, yerlarining begonalashtirilishi holatlarini tanqidiy o‘rganish va aniqlangan qonun buzilishi holatlariga nisbatan tegishli choralar ko‘rish uchun respublika ishchi guruhi, Istirohat bog‘lari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish nazarda tutilgan. Kengash tarkibiga istirohat bog‘lari direktorlari va malakali mutaxassislarni jalb etish belgilangan. Biroq, uning

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tarkibida fuqarolar va jamoatchilik vakillari ishtiroki nazarda tutilmagan.

Ayni paytda, istirohat bog‘larini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish va ulardan foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. Mazkur sheriklikning maqsadi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobidan iste’molchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlarni yaxshilash hamda ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish, istirohat bog‘i mulkidan foydalanish samaradorligini ta’minlashga qaratilgan. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-avgustdagi 671-son qarori bilan tasdiqlangan “Istirohat bog‘lari va yashil zonalarni tashkil etish metodologiyasi to‘g‘risida”gi nizomga asosan davlat-xususiy sheriklik istirohat bog‘lari hududlaridagi yer uchastkalarini tegishli obyektlarni qurish uchun ijaraga berish, istirohat bog‘i bino va inshootlarini ijaraga berish, yer uchastkasi, bino yoki inshootni konsession bitim asosida xorijiy xususiy sherikka qurish, rekonstruksiya qilish hamda jihozlash uchun ajratishni shakllarida amalga oshiriladi.

Bunda davlat sherigi hudud aholisining ehtiyojlaridan kelib chiqib, mahalliy hokimliklari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslardan tushgan takliflarni o‘rganish natijalari asosida tanlov e’lon qilish orqali davlat-xususiy sheriklik loyihasini taklif etishi mumkin. Tanlov yakunlari to‘g‘risidagi qaror davlat sherigining rasmiy veb-saytida e’lon qilinib, qabul qilingan qarordan norozi bo‘lgan tanlov ishtirokchisi sudga murojaat qilish huquqiga ega. Davlat sherigi va xususiy sherik tanlov komissiyasining qarori asosida uzoq muddatli (49 yilgacha) ijara shartnomasi yoki konsessiya bitimini tuzadi. Bitimda tomonlarning kelishuv shartlariga rioya etish yuzasidan mas’uliyati, xususiy sherikning o‘z majburiyatlarini bajarmagani yoki tegishli ravishda bajarmagani uchun sanksiyalar, obyektlarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash hamda modernizatsiyalash tartibi hamda muddatlari belgilanadi.

Biroq, mazkur jarayonda qaror qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki, qarordan norozi bo‘lganda sudga murojaat qilish huquqi, shartnoma shartlariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazorati nazarda tutilmagan. Bu esa O‘zbekiston yaqinda qo‘shilgan Orxus konvensiyasi talablariga muvofiq kelmaydi, qarorni qaytadan ko‘rib chiqish va konvensiya talablariga muvofiqlashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Suv havzalari e’tibor qaratish lozim bo‘lgan yana bir dolzarb masalalardan hisoblanadi. Iqlim sharoiti, geografik xususiyatlariga ko‘ra mamlakatimizda cho‘milish uchun jamoatchilikka kirish ochiq va erkin (bepul) suzish havzalariga katta ehtiyoj bo‘lsada, deyarli birorta jamoatchilik uchun ochiq (bepul) suv havzalari mavjud emas. Ushbu yo‘nalishda vakolatli davlat organlari va tashkilotlarining cho‘milish taqiqlanadi belgilarini o‘rnatib chiqish orqali masalaga yondashuvi bilan kelishib bo‘lmaydi. Xususan, 2020-yilda 165, 2021 yilda 151 nafar, 2022-yil yoz mavsumida 142 nafar fuqaro suvga cho‘kib vafot etgan [28]. Ularning qariyb yarmi

(2022-yilda 45.3%) voyaga yetmaganlar hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2023-yil boshida mamlakatimizda 331 ta suzish havzalari mavjud [29]. Mazkur suzish havzalari pullik bo‘lganligi sababli, ko‘pchilik insonlar, shu jumladan voyaga yetmaganlar xavfsizlik choralari, suv sifati yetarli ta’minlannmagan suv havzalarida cho‘miladi.

Bu esa noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan rekreatsiya maqsadlari uchun qirg‘oq bo‘yi va cho‘milish havzalarida suv sifati, xavfsiz va qulay infrastrukturaga (cho‘kib ketish, jarohat olishdan, birinchi yordam va qutqaruv xizmati) oid tavsiyalar berilgan [2].

Shuningdek, 2024-yildagi “Aholi punktlarining hududlarini rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish” 2.07.01-23-son shaharsozlik normalari va qoidalari (ShNQ) hamda 2009-yildagi Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish 2.07.01-03-son ShNQ bilan aholiga xizmat ko‘rsatish muassasalari va tashkilotlari normalari belgilangan. Mazkur normalarda yopiq suzish havzalariga oid normalar belgilangan, biroq ochiq suzish havzalari va plyajlarga oid normalar aniq belgilanmagan. Bu esa mamlakatimizda daryo va ko‘llar va boshqa suv havzalari bo‘yida plyajlar va cho‘milish havzalarini tashkil etish, ulardagi suv sifatini foydalanuvchilar salomatligi uchun doimiy tekshirib borish va xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlarini ko‘rishni taqozo etadi.

Qiyoslash uchun, Qozog‘istonda 2025-yilgi cho‘milish mavsumida 700 ga yaqin joyda cho‘milishga ruxsat berilgan bo‘lib, ularning 227 tasi jamoatchilik uchun ochiq (bepul) suzish havzalari hisoblanadi [30]. Ushbu suzish havzalarida fuqarolarning xavfsizlik choralari favqulodda vaziyatlar tuzilmalari tomonidan ta’minlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda yashil zonalar va suv havzalarini kengaytirish va muhofaza qilish bo‘yicha quyidagi takliflar bildiriladi:

Birinchidan, yashil zonalar va suv havzalariga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va ochiqlikni ta’minlash zarur. Shuningdek, mazkur jarayonda inson huquqlari va atrof-muhit muhofazasiga biznes manfaatlarga nisbatan ustuvorlik berish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, shahar hududidagi yashil zona va suv havzalarining minimal maydonini qonunchilik darajasida belgilash, mahalliy davlat hokimiyati organlariga tegishli ma’muriy hududiy birlik yoki shahar miqyosida esa yuqoridagi minimal talabdan ham yuqoriroq standartlarni belgilash imkoniyatini berish taklif etiladi. Bunda ularning shahar hududi bo‘ylab teng mutanosib taqsimlanishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish lozim.

Uchinchidan, har bir ma’muriy-hududiy birlik kesimida shahar hududidagi yashil zona va suv havzalarini yanada kengaytirish, ularning samarali boshqaruvi va muhofazasini ta’minlash, obodonlashtirishga oid yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan strategiya va dasturlarni qabul qilish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, alohida davlat dasturi asosida har bir hududda suzish mavsumida faoliyat yuritadigan, jamoatchilik uchun ochiq va xavfsizlik talablariga to‘la javob beradigan ochiq suzish havzalarini tashkil etish zarur.

Beshinchidan, shahar hududidagi bog‘ va xiyobonlarni davlat xususiy sherikchilik asosida berish amaliyotini maqbullashtirgan holda, bog‘ va xiyobonlarni davlat byudjeti va yashil jamg’arma, homiylik mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, istirohat bog‘laridagi faol rekreatsiya hududini qisqartirish va 25%dan oshmasligini belgilash, bog‘lardagi shovqinning asosiy manbasi bo‘lib turgan mexanik attraksionlar o‘rnatishni qat’iy cheklash, mazkur maqsadlar uchun shahar hududidan tashqarida tijoriy maqsadlarga mo‘ljallangan attraksionli tematik parklar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Mazkur choralar insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini ta’minlash, yashil zonalarning jozibadorligini oshirish bilan birga, atrof-muhit va global isish bilan bog‘liq xavf-xatarlarning oldini olish va yumshatishga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

Report of the Special Rapporteur on the human right to a clean, healthy and sustainable environment, Overview of the implementation of the human right to a clean, healthy and sustainable environment, 2024, A/79/270, https://docs.un.org/en/A/79/270.

Compendium of WHO and other UN guidance in health and environment, 2024.

Jennifer R. Wolch, Jason Byrne, Joshua P. Newell, Urban green space, public health, and environmental justice: The challenge of making cities ‘just green enough’, Landscape and Urban Planning, Volume 125, 2014, Pages 234-244, ISSN 0169-2046, https://doi.org/10.1016/j.landurbplan.2014.01.017.

Urban green spaces and health. Copenhagen: WHO Regional Office for Europe, 2016.

Craig Williams, et al. "Urban green space provision: the case for policy-based solutions to support human health." The Medical journal of Australia 222.3 (2025): n-a.

Adjei Mensah, Collins & Andres, Lauren & Perera, Upuli & Roji, Ayanda, Enhancing Quality of Life through the Lens of Green Spaces: A Systematic Review Approach. International Journal of Wellbeing, 6, 142-163, 2016.

FAO, Legal and institutional aspects of urban and peri-urban forestry and greening, Rome, 2005.

Jakub Kronenberg, et al., Environmental justice in the context of urban green space availability, accessibility, and attractiveness in postsocialist cities, Cities 106 (2020): 102862.

Verheij, J., Ay, D., Gerber, J. D., & Nahrath, S., Ensuring Public Access to Green Spaces in Urban Densification: The Role of Planning and Property Rights, Planning Theory & Practice, 24(3), 342–365, 2023.

Collins Adjei Mensah, Destruction of Urban Green Spaces: A Problem Beyond Urbanization in Kumasi City (Ghana). American Journal of Environmental Protection. Vol. 3, No. 1, pp. 1-9, 2014.

doi:10.11648/j.ajep.20140301.11

Junfang Xie, et al., Overview of urban planning policy and urban green space system at a national level in China, IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, Vol. 349, No. 1, IOP Publishing, 2019.

K.Keita, & S.Kourouma, Assessment of Policy and Legal Frameworks of Urban Green Infrastructure Development: Republic of Guinea, Buildings, 13(8), 1945, 2023.

Serena M. Williams, "Sustaining Urban Green Spaces: Can Public Parks Be Protected Under the Public Trust Doctrine." Southeastern Environmental Law Journal 10, 23-52, 2002.

S.Pincetl, & E.Gearin, The Reinvention of Public Green Space, Urban Geography, 26(5), 365–384, 2005.

Annerstedt van den Bosch M, Mudu P, Uscila V, et al. Development of an urban green space indicator and the public health rationale. Scandinavian Journal of Public Health, 44(2):159-167, 2015. doi:10.1177/1403494815615444

World Health Organization, Urban Planning, Environment and Health: From Evidence to Policy Action, 2010.

World Health Organization Regional Office for Europe, Urban green spaces: a brief for action, 2017.

A.M.Khan, Planning Standards for Recreational Facilities and Open Space in the Context of Urban Areas of Bangladesh (2012) in A.M.Khan, Revisiting Planning Standards for Recreational Facilities in Urban Areas. Equality in the City: Making Cities Socially Cohesive. World Town Planning Day, 2014. .

Singapore a City in a Garden – A model for creating an integrated urban green walking network, 2020, .

City of Ljubljana, Environmental protection, 2025,

J.Maes, G.Zulian, S.Günther, M.Thijssen, J.Raynal, Enhancing Resilience of Urban Ecosystems through Green Infrastructure, Final Report, Publications Office of the European Union, Luxembourg, 2019, doi:10.2760/602928.

C.Moughtin and P.Shirley, Urban Design: Green Dimension, Elsevier, 2005.

Экологический кодекс Республики Казахстан от 2 января 2021 года № 400-VI ЗРК.

Об утверждении целевых показателей качества окружающей среды города Астаны на 2023-2027 годы, Решение маслихата города Астаны от 11 декабря 2024 года №248/32-VIII.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023 yildagi PF-81-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 30.01.2024 yildagi O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri A.Abduxakimovning “Respublikada, shu jumladan Toshkent shahrida atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati to‘g‘risida”gi axboroti haqida 3963-IV-son qarori,

Ilhomjon Aslanov et al., Applying Remote Sensing Techniques to Monitor Green Areas in Tashkent Uzbekistan, E3S Web of Conferences 258, 2021.

Gazeta.uz, 2022. , yoshlarovozi.uz sayti, 2023, .

Respublikamizda nechta suzish havzalari faoliyat yuritmoqda? 2023.

Kazinform, 2025, 698 мест для купания официально разрешены в Казахстане .